

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANINING
O‘RNI VA VAZIFALARI**

Ibodova Nasiba Muhammadi qizi

*Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 23-3-guruh talabasi.*

Elamonova Dildora Sur‘at qizi

*Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 23-3-guruh talabasi.*

Burxonova Dilnoza Bahodir qizi

*Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 23-4-guruh talabasi.*

Annotatsiya. Biz ushbu maqolda biz tarbiya fanini boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni va vazifalari haqida fikr hamda mulohazalarni bayon etdik.

Kalit so‘zlar: tarbiya, axloq pedagogik jarayon, mazmun va mohiyat, jamiyat, boshlang‘ich ta’lim, komil shaxs, hadis, mutafakkir, aqliy madaniyat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning yangilanishi ta’limni tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo‘lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliylikiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan

qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.

Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq- atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va ananalarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

✓ o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish ;

✓ tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish ;

✓ ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish;

✓ tarbiyaviy ishlarining o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish ;

✓ tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, aynipaytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir. Imon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik – yangi ko'rilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sho'rocha axloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy axloqodob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Axloqiy tarbiya

vazifalaridan biri - ongli intizom bo'lishidir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir. Ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z axloqiy burchini to'g'ri anglaydi, o'z xatti- harakatlariga baho beradi, noto'g'ri xatti-harakatni qoralaydi.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir. Imon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik – yangi ko'rilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sho'rocha axloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy axloqodob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning , umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura ta'ziqi tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchikovlik bilan o'rganilayapti. Natijada, O'zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вазирлар Маҳкамаси 06.07.2020 йилдаги «Умумий ўрта таълим муассасаларида «Тарбия» фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 422 - сон қарор
2. N.Isatova va boshq. Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari. 2-sinf darslik. – T., “Gofur Gulom”, 2020
3. D.Ro`zieva va boshq. Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari. 3-sinf darslik. – T., “Sano - standart”, 2020
4. Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari fanidan 1-4 sinflar uchun taqvimiy – mavzui rejalar.
5. Ismoilova M. Maqsudova G va boshqalar. Boshlangich sinflarda ta'lim – tarbiya ishlari –tayyorlov yo'nalishi bo'yicha tarmoq ta'lim standarti va o'quv dasturlari.T.2005